



FARZANDNI TARBIYALASHNING OLTIN QOIDALARI

Bolangizni tushunishga harakat qiling. Uning o'y, hayollarini, sizga ko'nglini ochib aytgan har bir fikrini hurmat qiling.



Bolangizga shunday sharoit yaratib beringki, u o'zini to'kis, kuchli, mohir, udduburron, omadliman, deb his qilsin.

Har bir bola - betakror xilqat. Unga boshqalarni namuna qilib ko'rsatavermang. Sizning bolangizda ham boshqalar o'rganadigan xislatlar bor.



Bolangizdagi yaxshi fazilatlarga tayaning.

Bolangizni qanday bo'lsa, shunday - barcha yutuq va kamchiliklari bilan qabul qiling.



O'zingiz erisholmagan maqsadlarga erishishga uni majbur qilmang.

Unutmang, so'zlar emas, shaxsiy namuna kuchli tarbiyalaydi.

**UNUTMANG, BOLANGIZ
TARBIYASI UCHUN YAGONA
JAVOBGAR – SIZSIZ**



Bolangizni seving. Bunga u ishonsin, shubha qilmasin.



“Bolam men aytganimdek odam bo'lib chiqadi”, deb o'ylamang. U baribir boshqacharoq bo'lib yetishadi.